

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11607748>

QADIMGI TURKIY XALQLAR YODGORLIKLARIDA TARBIYAGA DOIR FIKRLAR

Shomurotova Nilufar Davronbek qizi

Urganch Davlat Universiteti Pedagogika fakulteti Pedagogika va psixologiya
yoʻnalishi 212-guruh talabasi

Yangiboyev Sanjarbek

Urganch davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola orqali siz Zardushtiylik taʼlimoti haqida va taʼlim-tarbiyaga oid fikrlar haqida maʼlumotlarga ega boʻlasiz. Avestodagi gʻoyalar, axloqiy qarashlar, ibtidoiy gʻoyalar haqida yangicha bilimlarga ega boʻlasiz. Oʻgитlarning mazmun-mohiyati va ularning bugungi kundagi mohiyatini bilib olasiz.

Kalit soʻz: *Zardushtiylik, Avesto, axloqiy gʻoyalar, pand-nasihati, hadislar, ibratomus fikrlar, muqaddas manbalar, ezgu fikrlar.*

Kirish: Zardushtiyalarda oila odobi odatda ota-onani hurmat qilishga oʻrgatishdan oshlangan. Bu jarayon bola ustoz qoʻlida taʼlim-tarbiya olayotgan muddatda ham davom etgan. Zero, ota-onani, kattalar va ustozlarni hurmatlash har ikki olam farovonligining muhim sharti, axloqiy mezoni deb qaralgan. Shuning uchun ham koʻplab oʻgитlarda bu masalaning uchrashi tabiiydir. Ikkinchidan, oila ahilligi va farzandlar kamoloti avvalo ota-onaga bogʻliq ekanligiga qattiq ishonishgan va otaonali kishilarni omadli sanashgan. Avestoshunos olimi G.Maxmudova yozganidek, “Avestoda qayd etilgan axloqiy gʻoyalar ibtidoiy jamoa tuzumida mavjud boʻlgan eng

qadimgi axloqiy tasavvurlarning qorishmasi bo‘lib, keyingi davrlarda ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlarga muvofiq ravishda o‘zgargan, boyigan va rivojlangan” 1. Qadim ajdodlarimiz savob va gunohni puxta anglab, o‘zlarini yovuz ishlardan tiyish yo‘llaridan biri ota-ona ibрати va e‘zosi deb bilishgan, aks holda katta gunoh qilishdan va Tangri g‘azabiga duchor bo‘lishdan hayiqishgan. O‘z navbatida, ota-onalar ham farzandlari tarbiyasida burchlarini to‘g‘ri anglab, chinakam maslahatgo‘y va murabbiy bo‘lishga intilganlar. Shuning uchun ham ota “Ilm va barkamollik o‘rgatuvchi, barkamollikka undovchi ustoz” sifatida ulug‘lansa, ona esa boshda ko‘tarib e‘zozlashga loyiqligi uqdiriladi. Qadimgi turkiy til davri barcha turkiy urug‘ va qabilalarning umumiy tili sifatida V-X asrlarni o‘z ichiga oladi. Qadimgi turkiy til kelib chiqishi va rivojlanishi jihatidan oltoy va xun tili davrlari bilan uzviy bog‘langan. Bu davr tili haqida B.Vladimirsov quyidagi fikrlarni bayon qiladi: "...mo‘g‘ul tili turk va tungus tillari bilan birga o‘zlarining bir umumiy ajdodiga ega bo‘lganki, uni shartli ravishda oltoy tili deb atash mumkin. Oltoy tilining rivojlanishi jarayonida tashkil topgan mo‘g‘ul, turk, tungus tillari ma‘lum. Bu davr turkiy tillar taraqqiyotining birinchi, eng qadimgi bosqichi bo‘lib, fanda u oltoy til birligi nomi bilan yuritiladi. Bu davrda hali turkiy tillar mo‘g‘ul tillaridan mo‘g‘ul tillari esa, o‘z navbatida, tungus-manchjur tillaridan ajralib chiqmagan edi, ular bir til birligi sifatida qo‘llanar edi. Shunday qilib, qandaydir eng qadimgi tilning bo‘lganligi taxmin qilinadi. Bu tilga xos umumiy leksik, fonetik va grammatik belgi-xususiyatlar esa hozirgi mo‘g‘ul, turkiy va tungus-manchjur tillarida saqlanib qolgan". Ota-onaga hurmat motivlari muqaddas Qur‘oni Karim va payg‘ambar Hadislaridan ham keng o‘rin olgan. Xususan, buyuk alloma Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy hadislaridagi “Adab kitobi”ning bir bobini ushbu masalaga bag‘ishlangan. Unda ota-ona va farzand munosabati, ularning o‘zaro huquq va burchlari haqida qimmatli fikrlar bayon etilgan. Bunday fikrlar, asosan, ta‘limiy xarakterda bo‘lib, “inson o‘z ota-onasiga itoatkor va mehribon bo‘lsin deb vasiyat qildik” so‘zlari bilan boshlanadi va ular isboti uchun muayyan hikoyalar keltiriladi. Ma‘lumki, “Avesto” qismlaridagi pand-nasihatlar turli davrlarga oid bo‘lib, ularda kishilarning bevosita turmush tajribalari va

ijtimoiy maishiy qarashlari xulosalari umumlashtirilgan. Bu xususiyat oila a'zolari, ayniqsa ota-ona va farzand munosabatlari, odob-axloq me'yorlarining ifodalanishida aks etadi. Qadimda yaratilib, asrlar osha sayqal topgan bu o'g'itlar islom dinida yangicha ta'limot ta'sirida muayyan o'zgarishlarga uchraydi, ularning mazmunan yaqin variantlari paydo bo'ladi. Lekin o'g'itlar mazmunidagi asosiy ta'limiy-axloqiy fikrlar saqlanib qoladi. Shu jihatdan "Avesto" va payg'ambar hadislaridagi ko'pgina qarashlarda hamohanglik, yaqinlikni ko'rish mumkin. Chunonchi, "Avesto"da balog'atga yetgan yigit va qizni oila qurishi odob me'yorlaridan biri sifatida qaralsa, hadislarda "uylanishga yaroqli va qodir bo'la turib, uylanmagan odam islom ahlidan emas", deya hukm qilinadi yoki zardushtiyalarda ota-onani ranjitish katta gunoh hisoblanganidek, islom ta'limotida "ota-onasini qarg'agan farzandni Tangri qarg'agani" o'ta odobsizlik sifatida baholangan. Hadislarida ota-onaning farzand oldidagi burchlari orasida axloq maqomi oldingi o'ringa qo'yilgan. Bunda ota-ona farzandiga beradigan barcha moddiy boyliklar-u ne'matlaridan odob ustun sanaladi. Zero, "hech bir ota-ona o'z farzandiga xulq-u odobdan buyukroq meros bera olmaydi" deyilishi bejiz emas. Shuningdek, quyidagi o'g'itlarda ham yuqoridagi ibratomuz fikrlarning turli ma'no qirralari aks etgan. "Kimki ota-onasining roziligini olgan bo'lsa, Tangri uning umrini uzaytiradi", "Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilangiz", "Agar ota-onang birdaniga chaqirsa, avval onangga javob qil" va boshqalar. Bu pand-nasihatlar Zardusht, kohinlar va payg'ambarlarning nasihatlari sifatida bayon etilgan. Muhimi shundaki, ularda nasllar va qarindoshlar o'rtasida o'zaro hurmat, mehr-oqibatning zarurligi ta'kidlanadiki, bu axloqiy da'vat katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi va hamma davrlar uchun ibratli qadriyat sifatida bugungi kunda ham barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qilmoqda. "Avesto"da bayon etilgan yaxshilik ruhi – bu yaratuvchilik, bunyodkorlik kuchi, yomonlik ruhi esa buzish va buzg'unchilikka olib keladi. Yaxshilik hayot ramzi, yerni odamlar foydali hayvonlar va o'simliklar bilan to'ldirish, insoniyat umrini sog'lik, kuch-qudrat, baxt va shodlik, umid va ishonch, go'zallik va ezgu fikr, to'kin-sochinlik bilan munavvar etmakdir. Yomonlik esa buning aksi, teskarisidir. Muqaddas manbada yaxshilik,

bunyodkorlik, eziglik ulug‘lanayapti, inson yaxshilik qilmog‘i uchun, yerni sevishi, uni ardoqlashi zarurligi, shuningdek, faol va haqgo‘y bo‘lmog‘i zarurligiga e‘tibor qaratilgan. Shundagina insonning faolligi va o‘z ishini bilishi tufayli yaxshilik dunyosi ko‘payib, inson o‘z qalbidagi qat-qat yomonlik, zulmat va zolimlikdan forig‘ bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Xorazm mutafakkirlarning pedagogik qarashlari “ fanidan o‘quv-uslubiy majmua
2. Йўлдошев Ж. Ҳасанов С. “Авесто”да ахлоқий-таълимий қарашлар. -Т.: Ўқитувчи, 1992.
3. Махмудов Т.М. «Авесто» ҳақида. - Т.: Шарқ, 2000.
4. Ҳомиджон Ҳомидий. Авестодан Шоҳномага. - Т.: Шарқ, 2007